



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MASALALARNING O'RNI

G'ofurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: mahfuza.gafurova73@gmail.com

Abdusalomova Mohidil Sherali qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi II bosqich magistranti

Email: eshqulovamaftuna0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda masalalarning o'rnini va ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar yechishning boshlang'ich sinflarda o'rganilishi u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: masala, matematika, tarkibiy qism, masala savoli, masala sharti, sodda va murakkab masalalar

Аннотация: Решение математических задач – важная часть обучения математике. Освоение математики невозможно представить без решения задач. Решение математических задач – важный способ применения теории решения задач на практике. Решение задач играет важную роль в процессе усвоения того или иного теоретического материала, изучаемого в начальных классах, и в развитии мыслительных способностей учащихся.

Ключевые слова: задача, математика, компонент, вопрос задачи, условие задачи, простые и сложные задачи

Abstract: This article discusses the role and importance of problems in improving the mathematical literacy of primary school students. Solving mathematical problems is an important component of teaching mathematics. It is impossible to imagine mastering mathematics without solving problems. Problem solving in mathematics is an important way to put the theory of solving problems into practice. The study of problem solving in primary school plays an important role in the process of mastering one or another theoretical material and in developing students' thinking skills.

Keywords: problem, mathematics, component, problem question, problem condition, simple and complex problems

KIRISH.

Matematik masala- bu bog‘liqli ixcham hikoya bo‘lib, unda ba‘zi kattaliklarning qiymatlari kiritiladiki, ularga bog‘liq va masala shartida ular bilan ma‘lum munosabatlar orqali bog‘langan boshqa kattaliklarning qiymatlari izlanadi. Masalalar 2 ta tarkibiy elementlarga ajratiladi:

1. Masalaning sharti- masalada keltirilgan voqea hodisaning so‘zlar bilan ifodalangani bo‘lib, unda son qiymatlari masala tarkibiga kiruvchi kattaliklar orasidagi funksional bog‘lanishni conlar yordamida oshkor holda yoki oshkormas shaklda so‘zlar yordamida ifodalangan bo‘ladi.

2. Masalaning savoli-bunda bir yoki bir nechta kattalikning noma‘lum qiymatlarini bilish taklif qilinadi.¹

Shunday qilib har qanday arifmetik masalada noma‘lum izlanayotgan son yoki bir nechta izlanayotgan sonlar va berilgan sonlardan iborat elementlar, albatta, bo‘lishi kerak. Shart va savol masalaning asosiy elementlari hisoblanadi.

Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib odatda o‘z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o‘rgatish matematika o‘qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. O‘quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi. Masalalar ustida ishlash sistemali ravishda va rejali asosda o‘quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishga olib keladi.

ASOSIY QISM.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. O‘quvchilar hali o‘qish malakasiga ega bo‘lmagan dastlabki vaqtlarda ularni o‘qituvchi o‘qib beradigan masala matnini tinglashga shartning muhim elementlarini tovush chiqarib ajratishga o‘rganish kerak. Shundan keyin masala shartini yaxshiroq o‘zlashtirish maqsadida, har bir o‘quvchi masala matnini tinglashga va masalani mustaqil o‘qib chiqishi zarur. Buning uchun ularga masalani oldin ovoz chiqarmay o‘qishni so‘ngra esa tovush chiqarib ifodali o‘qishni taklif qilish kerak.

Sodda va murakkab masalalarni yechish malakasini tarkib toptirish bo‘yicha birinchi va ikkinchi sinflarda boshlangan ish uchinchi va to‘rtinchi sinflarda davom ettiriladi. 3-4 sinflarda, eng oldin, 1-2 sinflar kurslariga kiritilgan sodda va murakkab masalalarni yechish ko‘nikma va malakalari yanada mustahkamlanadi.

Bunda o‘qituvchi quyidagi masalalar ustida ishlash rejasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

1. Masalani o‘qib chiqing, masalada nima haqida gap borayotganini o‘zingiz tasavvur qiling.

¹ A. Asimov, M. G‘ofurova “Masala yechishga kompetensiyaviy yondashuv” o‘quv qo‘llanma Farg‘ona 2019

2. Masalada nima ma'lum va nimani topish kerakligini aniqlashtirib oling. Agar masala matnini tushunib olish qiyin bo'lsa, uni qisqa yozing (yoki masalaga oid chizma tayyorlang).

3. Qisqa yozuv bo'yicha har bir son nimani ko'rsatishini tushuntiring va masala savolini takrorlang

4. O'ylab ko'ring, masala savoliga birdaniga javob berish mumkinmi, agar mumkin bo'lmasa, nega? Oldin nimani, keyin nimani bilish mumkin? Masalani yechish rejasini tuzing.

5. Yechishni bajaring va javobini yozing.

6. O'z yechimingizning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

7. O'zingizga “qiziqarli” savollar bering va ularga javob qaytaring.

Quyidagi masalalarni ishlash rejasiga muvofiq bajaring:

1. Boburda 20 ta konfet bor edi. U 8 tasini dugonasiga berdi, qolganini 3 ukasiga teng bo'lib berdi. Har bir ukasiga nechta konfet tegdi?

2. Bir do'konda 45 ta non bor edi. Ertalab 18 tasi sotildi, kechqurun qolganlari 9 ta javonga teng qilib joylashtirildi. Har bir javonda nechta non qoldi?

3. Bir avtobusda 56 nafar o'quvchi bor. Ularni sayohatga olib ketish uchun 14 nafardan o'quvchi sig'adigan mikroavtobuslar kerak. Nechta mikroavtobus kerak bo'ladi?

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, masalalarni yechishga boshlang'ich sinflarga o'rgatish o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitning o'zaro aloqadorligining turli tomonlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga masalalar yechish, bola tafakkurining rivojlanishiga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi rivojiga ham katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol” 2016 yil. 426 b.

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. “O'qituvchi” 2004 yil.

4. Tadjiyeva Z.G'., Abdullayeva B.S., Jumayev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Методика преподавания математики.—Т.:Turon-Iqbol,2011. 336

5 A.Asimov “O'quvchilarni masala tuzishga o'rgatishda inovatsion g'oyalardan foydalanish”, FaDU xabarlari, 2018-yil 6-son.

6. G. Samatova. Maktablarda matematika fanini o'qitishning dolzarb masalalari/ SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 323-24 betlar.